



SOCIO-PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF A NEW REGIONAL IDENTITY IN CENTRAL ASIA

Bekhzod Yuldashev

Researcher, Namangan State University

b.yuldashev@gmail.com

Namangan, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: Central Asia, regional identity, regional distinctiveness, socio-philosophical analysis, philosophy of cooperation, mutual trust, regional solidarity, regional integration, interconnectedness, geopolitical transformation, cultural rapprochement, sustainable development, indivisibility of security, cooperation, regional worldview model.

Received: 25.12.25

Accepted: 26.12.25

Published: 27.12.25

Abstract: This research is devoted to analyzing the socio-philosophical foundations of the emerging new regional identity in Central Asia. The strengthening of mutual trust among the states of the region, the deepening of cooperation, the rethinking of the shared historical and cultural heritage, and the integration processes driven by geopolitical transformations have given a strong impetus to the formation of a new regional identity. The study philosophically and methodologically substantiates the new conceptual profile of Central Asia, grounded in principles such as “regional solidarity,” “interconnectedness,” “joint development,” and “indivisibility of security.” Practical processes—including the political will of regional leaders, collective resolution of regional challenges, economic cooperation, transport and energy interdependence, measures against ecological risks, and cultural-humanitarian rapprochement—are examined as key factors shaping regional distinctiveness. The findings of the research contribute to understanding the philosophical interpretation of regional integration in Central Asia, the conceptual model of the new regional mindset, and the theoretical approaches that define the region’s future trajectory.

MARKAZIY OSIYODA YANGI MINTAQAVIY O‘ZIGA XOSLIK
SHAKLLANISHINING IJTIMOIIY-FALSAFIY ASOSLARI

Bexzod Yuldashev*Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi*b.yuldashev@gmail.com*Namangan, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, mintaqaviy o'ziga xoslik, mintaqaviy identitet, ijtimoiy-falsafiy tahlil, hamkorlik falsafasi, o'zaro ishonch, mintaqaviy birdamlik, mintaq integratsiyasi, o'zaro bog'liqlik, geosiyosiy transformatsiya, madaniy yaqinlashuv, barqaror rivojlanish, xavfsizlikning bo'linmasligi, kooperatsiya, mintaqaviy tafakkur modeli.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot Markaziy Osiyoda shakllanayotgan yangi mintaqaviy o'ziga xoslikning ijtimoiy-falsafiy asoslarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Mintaqa davlatlari o'rtasidagi o'zaro ishonchning mustahkamlanishi, hamkorlikning chuqurlashuvi, umumiy tarixiy-madaniy merosning qayta anglanishi va geosiyosiy jarayonlar ta'sirida yuzaga kelayotgan integratsiyalashuv tendensiyalari yangi mintaqaviy identitetning shakllanishiga kuchli turtki bermoqda. Tadqiqotda Markaziy Osiyoning yangi konseptual qiyofasi – “mintaqaviy birdamlik”, “o'zaro bog'liqlik”, “birgalikda taraqqiyot”, “xavfsizlikning bo'linmasligi” kabi tamoyillar asosida falsafiy-metodologik jihatdan asoslanadi. Mintaqa yetakchilarining siyosiy irodasi, mintaqaviy muammolarning birgalikda hal etilishi, iqtisodiy kooperatsiya, transport va energetik bog'liqlik, ekologik xavflarga qarshi choralar, madaniy-gumanitar yaqinlashuv kabi amaliy jarayonlar yangi mintaqaviy o'ziga xoslikni shakllantiruvchi asosiy omillar sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot xulosalari Markaziy Osiyo integratsiyasining falsafiy talqini, yangi mintaqaviy tafakkur modeli va mintaq kelajagini belgilovchi konseptual yondashuvlarni ochib berishga xizmat qiladi.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ НОВОЙ РЕГИОНАЛЬНОЙ САМОБЫТНОСТИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ**Бехзод Юлдашев***Исследователь Наманганского государственного университета*b.yuldashev@gmail.com*Наманган, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Центральная Азия, региональная самобытность, региональная идентичность, социально-философский анализ, философия сотрудничества, взаимное доверие, региональная солидарность, региональная интеграция,

Аннотация: Данное исследование посвящено анализу социально-философских оснований формирования новой региональной самобытности, складывающейся в Центральной Азии. Укрепление взаимного доверия между

взаимосвязанность, геополитическая трансформация, культурное сближение, устойчивое развитие, неделимость безопасности, кооперация, модель регионального мировоззрения.

государствами региона, углубление сотрудничества, переосмысление общего историко-культурного наследия и интеграционные тенденции, возникающие под влиянием геополитических процессов, оказывают мощное воздействие на формирование новой региональной идентичности. В исследовании философско-методологически обосновывается новый концептуальный облик Центральной Азии, основанный на таких принципах, как «региональная солидарность», «взаимосвязанность», «совместное развитие», «неделимость безопасности». Политическая воля лидеров региона, совместное решение общих проблем, экономическая кооперация, транспортно-энергетическая взаимозависимость, меры против экологических рисков, культурно-гуманитарное сближение рассматриваются как ключевые факторы формирования новой региональной самобытности. Выводы исследования позволяют раскрыть философскую интерпретацию интеграционных процессов в Центральной Азии, модель нового регионального мышления и концептуальные подходы, определяющие будущее развитие региона.

Kirish. So‘nggi yillarda Markaziy Osiyo mintaqasida ro‘yayotgan chuqur siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar mintaqa taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berdi. Mintaqa davlatlari o‘rtasida shakllanayotgan o‘zaro ishonch, yaxshi qo‘shnichilik, manfaatlar uyg‘unligi va strategik sheriklik tamoyillari bugun Markaziy Osiyoda ilgari kuzatilmagan darajada konstruktiv mintaqaviy muhitni vujudga keltirmoqda. Ushbu jarayon mintaqaviy integratsiya va kooperatsiyaning kuchayishi bilan birga, yangi mintaqaviy o‘ziga xoslik – umumiy tarixiy-madaniy ildizlar, o‘zaro bog‘liqlik va birgalikda taraqqiyot g‘oyalari tayanadigan konseptual birlikning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikdan so‘ng uzoq vaqt davomida ichki siyosiy barqarorlikni ta‘minlash, iqtisodiy islohotlar o‘tkazish va milliy davlat qurish vazifalariga e‘tibor qaratgan bo‘lsalar, bugungi kunda ular o‘zaro hamkorlikni strategik zarurat sifatida qayta anglamoqda. Iqlim o‘zgarishi, suv va energetika xavfsizligi, transchegaraviy tahdidlar, global geosiyosiy beqarorlik kabi umumiy muammolar mintaqani birlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, madaniy yaqinlik, tarixiy mushtaraklik, turmush tarzi va

mentalitetdagi umumiyliklar yangi mintaqaviy identitet shakllanishining falsafiy asosini tashkil etmoqda.

Mintaqaviy birdamlik jarayonining jadallashuvi 2017-yildan boshlab Markaziy Osiyo yetakchilarining tashqi bosimsiz, oʻzaro ishonchga asoslangan muntazam muloqotlari natijasida kuchaydi. Chegara masalalarining hal etilishi, birgalikdagi iqtisodiy, energetik, transport va ekologik loyihalarning yoʻlga qoʻyilishi mintaqada yangi siyosiy tafakkur va hamkorlik madaniyatini shakllantirdi. Bu jarayonlar nafaqat amaliy natijalar, balki mintaqaviy oʻzlikni anglashning yangi falsafiy asoslarini yaratmoqda.

“Qoʻshnichilik – xavf emas, imkoniyat”, “bir tomonning muvaffaqiyati – hammaga foyda” kabi tushunchalar Markaziy Osiyoda shakllanayotgan yangi dunyoqarashning asosiy tamoyillariga aylandi. Mintaqaning iqtisodiy integratsiyasi, ichki savdo hajmining oshishi, transport-kommunikatsion bogʻliqlikning kuchayishi, gumanitar aloqalarning rivojlanishi mintaqaviy oʻziga xoslikning ijtimoiy-amaliy namoyon boʻlishi sifatida talqin etilishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, Markaziy Osiyoda yangi mintaqaviy identitet shakllanishining ijtimoiy-falsafiy asoslarini oʻrganish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Mavzuning dolzarbligi mintaqada integratsiyalashuv jarayonlarining yangi bosqichga oʻtgan, global oʻzgarishlar sharoitida Markaziy Osiyoning yagona siyosiy, iqtisodiy va madaniy makon sifatida shakllanishi ehtiyojidan kelib chiqadi. Tadqiqot mintaq taraqqiyotining falsafiy-metodologik asoslarini anglash, yangi mintaqaviy tafakkur modelini ochib berish va Markaziy Osiyo davlatlarining kelajakda tutadigan oʻrnini talqin qilish uchun nazariy platforma yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Shuni alohida taʼkidlash lozimki, mustaqillik yillarida Oʻzbekistonda siyosiy jarayonlar, mintaqaviy integratsiya, xavfsizlik va barqarorlik muammolariga bagʻishlangan ilmiy tadqiqotlar sezilarli darajada rivojlandi. Bu yoʻnalishda tarixchilar, faylasuflar va siyosatshunos olimlar tomonidan nomzodlik va doktorlik darajasidagi koʻplab dissertatsiya ishlari himoya qilindi. Xususan, Sh.I. Paxrutdinov, N.A. Nazarov, R.H. Murtazayeva, A.R. Rahmonov, S. Sayidalimov, F. Tolipov, Sh.A. Xaydaraliyev, Sh.Z. Jumaxanov[5] va boshqa bir qator tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari mazkur masalaning turli jihatlarini qamrab olgan.

Mintaqaviy hamkorlikning nazariy asoslariga oid masalalarda turli tadqiqotchilar tomonidan bir qator konseptual yondashuvlar ilgari surilgan. Xususan, R. Alimov[2. – C. 25.] Markaziy Osiyo misolida mintaq davlatlarini birlashtiruvchi omillarni tahlil qilar ekan, tarixiy-madaniy mushtaraklikni mintaqaviy integratsiya jarayonlari uchun eng muhim tayanchlardan biri sifatida eʼtirof etadi. Uning taʼkidlashicha, oʻtmishdan meros boʻlib kelgan umumiy sivilizatsion zamin mintaq xalqlarini yaqinlashtiruvchi asosiy hodisa hisoblanadi.

F. Tolipov esa Markaziy Osiyoda hamkorlikning shakllanish omillarini o'rganib, mintaqa yaxlitligini ta'minlovchi bir qator qadriyatlar va geoiqtimoiy omillarga e'tibor qaratadi. Tadqiqotchining fikricha, "umumiy geografik makon, etnik ildizlarning yaqinligi, madaniy va urf-odatlar mushtarakligi Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikning barqaror poydevorini tashkil etadi"[6]. Bu omillar nafaqat tarixiy birlikni aks ettiradi, balki zamonaviy integratsiya tendensiyalari uchun ham konseptual asos vazifasini bajaradi.

Qozog'istonlik tadqiqotchi Ye. J. Yeschanova[4] mintaqaviy hamkorlikning shakllanish omillarini talqin qilar ekan, mintaqa xalqlarining umumiy tarixi, madaniyati, tili, e'tiqodi, iqtisodiy aloqalari, ta'lim tizimi va moliyaviy standartlaridagi o'xshashliklarni hamkorlikning asosiy tayanchi sifatida ko'rsatadi. Uning fikricha, mazkur omillar nafaqat madaniy yaqinlikni, balki institutsional uyg'unlashuv ehtiyojini ham aks ettiradi.

Yana bir qozog'istonlik olim G. T. Telebayev[7. – C. 41.] esa mintaqa xalqlarining mentalitetiga xos bo'lgan bag'rikenglik, mehmondo'stlik va ochiq muloqotga moyillikni hamkorlikning tabiiy asoslaridan biri sifatida e'tirof etadi. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, ushbu fazilatlar mintaqada ishonchni mustahkamlovchi muhim ijtimoiy-psixologik omil sifatida namoyon bo'ladi.

Yuqorida tilga olingan tadqiqotchilar asosan tarixiy-madaniy mushtaraklikni Markaziy Osiyoda hamkorlikning bosh omili sifatida talqin etadilar. Biroq ayrim olimlar masalaga yanada kengroq yondashadilar. Jumladan, M.Sh. Gubaydullina[3] mintaqaviy integratsiyaning poydevorini ko'p tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalarning chuqurlashuvi, kooperatsiya shakllarining rivoji va o'zini-o'zi ta'minlaydigan, tashqi tahdidlardan himoyalangan umumiy bozor makonining shakllanishi bilan bog'laydi.

Shu bilan birga, mazkur yondashuvlar mintaqaviy hamkorlikning barcha jihatlarini to'liq qamrab olmaydi. Hamkorlikning konseptual asoslari nafaqat tarixiy-madaniy omillarni, balki siyosiy ishonch, institutsional uyg'unlik, xavfsizlikka oid qo'shma mexanizmlar, transport-energetika integratsiyasi va ekologik xavflarga qarshi birgalikdagi strategiyalarni ham o'z ichiga olishi lozim.

O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qator strategik hujjatlar va islohot dasturlarida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishga ma'lum darajada ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, shuningdek, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyot yo'nalishlarini belgilab berdi.

Bundan tashqari, 2023-yil 11-sentyabrda qabul qilingan PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon milliy modernizatsiya jarayonlarining navbatdagi bosqichini shakllantirdi. Shuningdek, 2017-yil mart oyida imzolangan “O‘zbekiston Respublikasi bilan Qozog‘iston o‘rtasida strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirish va ahil qo‘shnichilikni mustahkamlash to‘g‘risidagi Qo‘shma deklaratsiya” mintaqaviy integratsiya va yaxshi qo‘shnichilik siyosatining mustahkam huquqiy asosi sifatida e’tirof etiladi.

Yana 2017-yil 19-maydagi PF-5046-son “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon jamiyatda totuvlikni mustahkamlash, xalqaro hamkorlik va mintaqaviy dialogni rivojlantirish bo‘yicha muhim vazifalarni belgilab bergan.

Ushbu strategik hujjatlarda ilgari surilgan maqsad va vazifalar Markaziy Osiyoda mintaqaviy o‘ziga xoslik, integratsion jarayonlar va hamkorlik falsafasini ilmiy-nazariy tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan mazkur dissertatsiya milliy va mintaqaviy rivojlanish g‘oyalarini falsafiy jihatdan asoslash hamda ularning amaliy ahamiyatini yoritishda muayyan ilmiy hissa qo‘shadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Markaziy Osiyo davlatlari so‘nggi o‘n yilliklarda o‘zlarining milliy rivojlanish strategiyalarini shakllantirar ekan, ular mintaqaning tarixiy-madaniy merosi, xalqlarning mentaliteti va zamonaviy global tajribani uyg‘unlashtirishga alohida e’tibor qaratdilar. Tojikistonning “milliy hamjihatlik” modeli, Turkmanistonning “pozitiv betaraflik” tamoyili, O‘zbekistonning “O‘zbek modeli”, Qirg‘izistonning “sinxron rivojlanish konsepsiyasi”, Qozog‘istonning “Qozog‘iston modeli” shular jumlasidandir. Ushbu konsepsiyalar tarixiy an‘analar, mavhum qadriyatlar va zamonaviy islohotlar sintezi sifatida shakllanib, mintaq taraqkiyotining o‘ziga xos yo‘lini belgilab bermoqda.

Markaziy Osiyo davlatlarining milliy taraqqiyot modellari nafaqat sotsiodinamik hodisa sifatida, balki mintaqaviy integratsiya jarayonlarining nazariy asosini tashkil etuvchi muhim omil sifatida ham ahamiyatlidir. Bu modellarning o‘zaro qiyosiy o‘rganilishi, mintaq davlatlari siyosiy tizimi, ijtimoiy taraqqiyoti va iqtisodiy rivojlanishidagi o‘xshashlik hamda tafovutlarni aniqlashga yordam beradi. Shu jihatdan, milliy taraqqiyot strategiyalari va mintaqaviy integratsiya tajribalarining falsafiy tahlili nafaqat ilmiy izlanishlar, balki murakkablashib borayotgan global geosiyosiy muhitda nizo va qarama-qarshiliklarni bartaraf etish uchun ham muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

“Asta-sekin Markaziy Osiyoning yangi mintaqaviy o‘ziga xosligi vujudga kelmoqda. Bu farqli jihatlarimizni e’tirof etish va ayni paytda xalqlarimizning umumiy tarixi, mushtarak madaniyatini, taqdirlarimiz o‘zaro bog‘liq ekanini chuqur anglashga asoslanadi.”[1]

Prezidentning ushbu fikri Markaziy Osiyoda shakllanayotgan yangi mintaqaviy o'ziga xoslik fenomenining chuqur ijtimoiy-falsafiy mohiyatini yoritadi. Mazkur jarayon, avvalo, mintaqaxalqlarining tarixiy-madaniy mushtarakligi hamda umumiy taqdirning falsafiy realligi sifatida qaralmoqda. Falsafa nuqtayi nazaridan, mintaqaviy identitetning shakllanishi ikki asosiy tamoyilga tayanadi: farqlilikni tan olish va mushtaraklikni ongli ravishda qayta anglash. Birinchisi – mamlakatlar o'rtasidagi suveren rivojlanish yo'llarini e'tirof etishni bildirsa, ikkinchisi – mintaqani birlashtiruvchi tarixiy tajriba, umumiy madaniy kod va ijtimoiy ong strukturalarini qayta kashf etishni anglatadi.

Ushbu iqtibosda nazarda tutilgan “o'zaro bog'liqlikni chuqur anglash” jarayoni mintaqaviy dunyoqarashning evolyutsiyasini bildiradi. Post-sovet davridagi parokandalikdan farqli ravishda, bugungi bosqichda Markaziy Osiyoda o'zaro manfaatga asoslangan integrativ tafakkur shakllanmoqda. Bu tafakkur mintaqaviy o'ziga xoslikning ontologik asoslarini belgilaydi: xalqlar o'rtasidagi ijtimoiy-hayotiy aloqalar, madaniy yaxlitlik va tarixiy birlik mintaqaviy identitetning fundamental qatlamiga aylanmoqda.

Falsafiy jihatdan olganda, bu jarayonni “mintaqaviy subyektlilikning uyg'onishi” sifatida talqin qilish mumkin. Ya'ni Markaziy Osiyo endilikda tashqi kuchlarning geosiyosiy obyektiga emas, balki o'z manfaatlari va taraqqiyot strategiyasiga ega mustaqil mintaqaviy subyektga aylanmoqda. Mushtaraklikni ongli ravishda anglash esa mintaqaning barqarorligini ta'minlovchi aksiologik birlik – umumiy qadriyatlar tizimini shakllantirmoqda.

Shunday qilib, iqtibosda ta'kidlangan fikrlar Markaziy Osiyoda yuzaga kelayotgan yangi mintaqaviy o'ziga xoslikning mazmunini – uning tarixiy ildizlari, madaniy asoslari, ijtimoiy ongndagi aks etishi va siyosiy subyekt sifatidagi shakllanishini falsafiy jihatdan asoslab beradi.

Mintaqadagi eng yirik geosiyosiy yutuqlardan biri – chegaralar bilan bog'liq masalalarning hal etilishi. Prezident ta'kidlaydi: “Mintaqa mamlakatlarining mustaqil rivojlanish tarixida ilk bor o'zaro chegaralarning barchasi huquqiy jihatdan rasmiylashtirildi.”

Bu nafaqat huquqiy masala, balki uzoq yillar davomida mintaqada keskinlik manbai bo'lib kelgan muammolarning tugatilganini anglatadi. Avvallari davlatlar o'rtasida nizolarni kuchaytirgan hududlar bugun birdamlik va do'stlik ko'prigiga aylanmoqda.

Xususan, 2025-yil mart oyida imzolangan tarixiy hujjatlar haqida davlat rahbari shunday deydi: “Buni haqli ravishda olamshumul voqea deb atash mumkin.”

Shuningdek, Farg'ona tinchlik forumi – mintaqaxalqlarining barqarorlikka bo'lgan intilishining amaliy ko'rinishidir.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” nomli maqolasi mintaqaning bugungi holati va kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlarini aniq belgilab

beruvchi strategik hujjat sifatida alohida ahamiyatga ega. Undagi fikrlar Markaziy Osiyoda so‘nggi yillarda shakllangan o‘zaro ishonch, yaxshi qo‘shnichilik, iqtisodiy jipslashuv, energetika va suv resurslarini birgalikda boshqarish, transport-logistika tizimini kengaytirish kabi jarayonlar tasodifiy emas, balki davlatlar yetakchilarining izchil siyosati natijasi ekanini ko‘rsatadi.

Eng e‘tiborli nuqtalardan biri shundaki, Prezident maqolasida ilgari surilgan “Biz devor emas, ko‘prik barpo etmoqdamiz” degan tamoyil bugungi Markaziy Osiyo integratsiyasining asosiy mazmunini ifodalaydi. Bu yondashuv mintqa davlatlarining o‘zaro ishonch, manfaatlar mushtarakligi va hamkorlik ruhiga asoslangan yangi bosqichga kirganini ko‘rsatadi.

Shu ma’noda, Prezidentning mazkur maqolasi oddiy siyosiy bayonot emas, balki Markaziy Osiyo taraqqiyotining yaqin va uzoq istiqbolini belgilovchi konseptual dastur sifatida ahamiyat kasb etadi. Mintaqa oldida turgan murakkab geosiyosiy vaziyatlar, global xavf-xatarlar va iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida aynan mana shu strategik qarashlar barqarorlikni mustahkamlash, taraqqiyotni jadallashtirish va mintaqani yangi bosqichga olib chiqishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Markaziy Osiyoda so‘nggi yillarda kuzatilayotgan o‘zaro ishonchning mustahkamlanishi, mintqa davlatlarining siyosiy irodasi, iqtisodiy hamkorlikning chuqurlashuvi va madaniy-gumanitar aloqalarning kengayishi natijasida yangi mintaqaviy o‘ziga xoslik shakllanmoqda. Tadqiqot davomida ushbu jarayonning falsafiy, ijtimoiy va geosiyosiy omillari tahlil qilindi hamda Markaziy Osiyo integratsiyasining mazmun-mohiyati mintqa tarixidagi yangi bosqich sifatida talqin etildi.

Yangi mintaqaviy identitetning shakllanishida uch asosiy omil alohida o‘rin tutishi aniqlandi: birinchidan, umumiy tarixiy-madaniy meros va mushtarak qadriyatlarning qayta anglanishi; ikkinchidan, global tahdidlar fonida mintaqaviy barqarorlikni ta‘minlash zaruratining kuchayishi; uchinchidan, davlatlar o‘rtasida o‘zaro manfaatga asoslangan pragmatik hamkorlik madaniyatining mustahkamlanishi. Mazkur omillar Markaziy Osiyoda avval mavjud bo‘lgan parokandalik va ishonchsizlikning o‘rnini hamjihatlik, sheriklik va birgalikda taraqqiyotga asoslangan yangi tafakkur modeli bilan almashtirmoqda.

Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, mintaqaviy o‘ziga xoslik tasodifiy hodisa emas, balki tarixiy zarurat, geosiyosiy kontekst va ijtimoiy ongda transformatsiyalarning uyg‘unlashuvi natijasidir. “Xavfsizlikning bo‘linmasligi”, “qo‘shnichilik – imkoniyat”, “birgalikda rivojlanish” kabi tamoyillar Markaziy Osiyoning yangi falsafiy paradigmasi sifatida shakllanmoqda. Bu tamoyillar nafaqat mintaqaviy siyosatni, balki iqtisodiy integratsiya, ekologik hamkorlik,

transport-kommunikatsion bog'liqlik va madaniy aloqalarni ham uyg'unlashtiruvchi universal asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, tadqiqot mintaqaning global maydondagi mavqei mustahkamlanayotganini, "Markaziy Osiyo plyus" formatlari orqali mintqa yagona aktor sifatida shakllanayotganini ko'rsatdi. Yangi mintaqaviy identitetning shakllanishi mintqa davlatlari uchun nafaqat ichki, balki xalqaro miqyosda ham yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Bu jarayon mintaqaning barqaror taraqqiyoti, xavfsizligi va xalqaro ta'sirchanligini oshiruvchi uzoq muddatli strategik asos sifatida namoyon bo'lmoqda.

Yakuniy natija sifatida aytish mumkinki, Markaziy Osiyoda kuzatilayotgan mintaqaviy jipslashuv jarayonlari chuqur falsafiy mazmunga ega bo'lib, ular mintaqaning kelajagini belgilovchi yangi ijtimoiy-siyosiy paradigmani shakllantirmoqda. Yangi mintaqaviy o'ziga xoslik – bu mushtarak tarix, umumiy mas'uliyat va barqaror kelajak sari birgalikda harakat qilish g'oyasiga tayanadigan integratsiyalashgan tafakkur mahsulidir. Ushbu jarayonning izchil davom etishi Markaziy Osiyoni mustahkam, farovon va o'z ovozigga ega global mintaqaga aylantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida // Yuz.uz. – 2025. – 13 noyabr. – URL: <https://yuz.uz/uz/news/markaziy-osiyo-yangi-davr-ostonasida> (murojaat qilingan sana: 2025.12.04).

2. Алимов Р. М. Центральная Азия: общность интересов. – Т.: 2005. Шарк –С.25.

3. Губайдуллина М.Ш. Опыт европейской интеграции и его применение на территории Центральной Азии.
<https://scholar.google.ru/citations?user=ymKbfbcAAAAJ&hl=ru>

4. Ешанова Е. Ж. К вопросы об эволюции интеграционных процессов в Центральной Азии. 160. <http://www.ca-c.org/journal/cac-06-1999>

5. Пахрутдинов Ш. И. Проблемы угроз независимости и прогрессу общества (опыт политического анализа) Автор. дисс... канд. политический наука. – Ташкент: 1999, –.36 с.; Назаров Н.А. Марказий Осиёда миллатлараро муносабатлар. Монография. – Тошкент: 2018.; Murtazayeva R.X. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. Darslik. – Toshkent: 2020.; Рахманов А.Р. Международно-правовые аспекты обеспечения общей национальной безопасности Республики Узбекистан. Автореф. дисс... Доктор политических наук наука. – Ташкент: 2001, –.45 с.; Сайдалимов С. Формирование региональной системы безопасности в Центральной Азии. Автореф. дисс.... конфеты политический наука. – Ташкент: 2002. – 29 s; Толипов Ф. Формирование концепции

национальных интересов Республики Узбекистан в контексте мирового политического развития. Автореф. дисс... конфеты политический наука. – Ташкент: 2001.– 32 с.; Хайдаралиев Ш.А. Марказий Осиё минтақасида хавфсизлик ва барқарорликни таъминлашда халқаро ташкилотлар ва Ўзбекистоннинг ўрни (1991-2010 йиллар). Тарих фан номзоди дисс.... – Тошкент: ЎзМУ, 2012.; Jumaxanov Sh.Z. Markaziy Osiyo anklav/eksklav hududlarini iqtisodiy geografik va siyosiy geografik tadqiq etishning metodologik asoslari. Geografiya fan doktori (DSc) diss.... – Toshkent: O‘zMU, 2023.

6. Телебаев Г. Т. Центральноазиатская интеграция: объективные и субъективные параметры // Аналитик, №6,2002./ - С.41.

7. Толипов Ф. Теория и практика интеграции и Центральной Азии. <http://www://analiticaphp.story>